

## **IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK ADABIYOTI VA DRAMATURGIYASINING G'OYAVIY-BADIIY YO'NALISHLARI**

**Nishonov San'atbek Kayumovich**

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Tompson xususiy maktabi o'qituvchisi

Email: sanatbek.nishonov@mail.ru

Tel.: 97 239 99 77

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek adabiyoti va dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Urush sharoitida adabiyot va san'at xalqni siyosiy-mafkuraviy safarbar etish, front va front orti o'rtasida ma'naviy aloqani kuchaytirish, jangchilarni ruhlantirish, dushmanga qarshi nafrat hamda g'alabaga ishonch tuyg'usini mustahkamlash vositasiga aylangan. Maqolada she'riyat, she'riy xat, ocherk, hikoya, ballada, tarixiy drama, tarixiy-biografik roman va tarjima jarayonlari asosida urush davri adabiy muhitining asosiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, davr adabiyotidagi badiiy yutuqlar bilan birga mafkuraviy buyurtma, shoshilinch ijod, sxematik obrazlar va partiyaviy nazorat kabi ziddiyatli jihatlar ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Ikkinchi jahon urushi, o'zbek adabiyoti, dramaturgiya, she'riy xat, front, front orti, vatanparvarlik, tarixiy drama, Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda.

### **IDEOLOGICAL AND ARTISTIC TENDENCIES OF UZBEK LITERATURE AND DRAMATURGY DURING THE SECOND WORLD WAR**

**Abstract.** This article analyzes the ideological and artistic tendencies of Uzbek literature and dramaturgy during the Second World War. Under wartime conditions,

literature and art became instruments of political and ideological mobilization, strengthening moral ties between the front and the rear, inspiring soldiers, intensifying hatred toward the enemy, and reinforcing belief in victory. The article examines poetry, poetic letters, essays, short stories, ballads, historical drama, historical-biographical novels, and translation processes as key features of the literary environment of the war period. Along with artistic achievements, the article also discusses contradictory aspects such as ideological orders, hasty writing, schematic images, and party control over literature.

**Keywords:** Second World War, Uzbek literature, dramaturgy, poetic letter, front, home front, patriotism, historical drama, Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda.

## **ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И ДРАМАТУРГИИ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ**

**Аннотация.** В статье анализируются идейно-художественные направления узбекской литературы и драматургии в годы Второй мировой войны. В условиях войны литература и искусство превратились в средство политико-идеологической мобилизации народа, укрепления духовной связи между фронтом и тылом, воодушевления бойцов, усиления ненависти к врагу и веры в победу. Рассматриваются поэзия, стихотворные письма, очерк, рассказ, баллада, историческая драма, историко-биографический роман и переводческие процессы как основные проявления литературной среды военного времени. Наряду с художественными достижениями анализируются противоречивые стороны периода: идеологический заказ, поспешность творчества, схематизм образов и партийный контроль над литературой.

**Ключевые слова:** Вторая мировая война, узбекская литература, драматургия, стихотворное письмо, фронт, тыл, патриотизм, историческая драма, Айбек, Хамид Алимджан, Гафур Гулям, Максуд Шейхзаде.

**Kirish.** Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek adabiyoti va dramaturgiyasi murakkab tarixiy sharoitda rivojlandi. Urushning boshlanishi bilan adabiyot va san'atning ijtimoiy vazifasi keskin o'zgardi: badiiy ijod front va front ortini ruhlantirish, xalqni safarbar etish, dushmanga qarshi g'oyaviy kurash olib borish, g'alabaga ishonchni kuchaytirish vositasiga aylantirildi. Bu davrda ijodkorlardan nafaqat badiiy asar yaratish, balki targ'ibotchi, publisist, front muxbiri va siyosiy-ma'naviy safarbarlik ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritish talab qilindi.

Urush davri o'zbek adabiyotida she'riyat, publisistika, ocherk, hikoya, ballada va dramaturgiya janrlari tezkor rivojlandi. Bunday janrlar qisqa muddatda ijtimoiy kayfiyatga ta'sir ko'rsatish, jangchilar va front ortidagi mehnatkashlarga murojaat qilish, dushman obrazini yaratish va xalq bardamini mustahkamlash imkonini berdi. Tarixiy mavzular, folklor motivlari, mumtoz merosga murojaat qilish ham kuchaydi. Natijada urush yillaridagi adabiy jarayon bir tomondan siyosiy-mafkuraviy buyurtmaga bo'ysundi, ikkinchi tomondan xalqning ruhiy holati, tarixiy xotirasi va badiiy ehtiyojlarini ifodalovchi muhim adabiy bosqichga aylandi.

**Asosiy qism.** Urushning dastlabki kunlaridanoq o'zbek adabiyoti harbiy davr talablariga moslashdi. Matbuotda chaqiriq, murojaat, jangovar ruh va safarbarlik ohangi kuchaydi. "Nayza va qalam bizning qurolimiz bo'ladi" mazmunidagi shior ijodkorlar faoliyatining umumiy yo'nalishini belgiladi [1]. 1941-yil iyun oyining o'zidayoq Sh. Rashidov, Oybek, S. Abdulla, A. Umariy, G'ayratiy, G'. G'ulom kabi ijodkorlarning jangovar ruhdagi she'rlari paydo bo'ldi [2]. Bu asarlarda Vatan himoyasi, g'alabaga ishonch, dushmanga nafrat va xalq birdamligi asosiy g'oya sifatida oldinga chiqdi. 1941-yil 8-iyulda respublikada siyosiy agitasiya va

propagandani kuchaytirish bo'yicha qaror qabul qilinishi adabiyot va san'atni urush sharoitiga moslashtirishda muhim bosqich bo'ldi. Bu jarayonda yozuvchilar, san'atkorlar va kompozitorlardan xalqni kurashga da'vat etuvchi, vatanparvarlik ruhidagi asarlar yaratish talab qilindi. 1941-yil 23-iyulda San'at ishlari komiteti va Yozuvchilar uyushmasiga yordam ko'rsatish bo'yicha respublika komissiyasining tuzilishi adabiy jarayonni tashkiliy jihatdan ham safarbarlik tizimiga yaqinlashtirdi [3]. 1941-yil sentabr oyida Yozuvchilar uyushmasi Prezidiumi huzurida tashviqot va targ'ibot bo'limi tashkil etildi. 1942-yil aprel oyida harbiy komissiya tuzildi. Bu tuzilmalar yozuvchilarning asarlarini matbuot va radio orqali targ'ib qilish, frontdagi adiblar bilan aloqa o'rnatish, harbiy jurnalistlar tayyorlash va front ortidagi adabiy faoliyatni muvofiqlashtirish bilan shug'ullandi [4]. Bunday tashkiliy choralar adabiy jarayonning siyosiy boshqaruv bilan bevosita bog'langanini ko'rsatadi.

Urush yillarida she'riyat eng faol janrlardan biri bo'ldi. She'r qisqa muddatda xalq ommasiga ta'sir etish, jangovar ruh uyg'otish va matbuot orqali keng tarqatish imkoniga ega edi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Oybek, Uyg'un, Mirtemir, Chustiy, Temur Fattoh va boshqa ijodkorlarning she'rlarida vatanparvarlik, qasos, jasorat, ona yurt sog'inchi va g'alabaga ishonch g'oyalari yetakchi o'rin egalladi [5].

Urush davri o'zbek adabiyotida "she'riy xat" janri alohida ahamiyat kasb etdi. Front va front orti o'rtasidagi ma'naviy aloqani ifodalashda bu janr qulay badiiy shakl bo'ldi. "O'zbek xalqidan Ulug' Vatan urushi jangchilariga xat", "Qardoshlikni ulug'laylik", "Salom xat", "Jangchi xatidan", "Farhodga xat", "Frontdan xat", "Jangchining maktubi" kabi asarlar frontdagi jangchilar va respublika aholisi o'rtasidagi ruhiy yaqinlikni kuchaytirdi [5; 6].

She'riy xatlarda jangchining jasorati, front ortidagi fidokorona mehnat, onaning duosi, yor sog'inchi, ona yurtga sadoqat va dushmanga qarshi kurash tuyg'usi uyg'unlashdi. Bu janrning ta'siri front xatlarida ham sezildi. Jangchilarning

maktublarida o'zbek yozuvchilarining asarlari ularni ruhlantirgani, dushmanga qarshi kurashga undagani qayd etilgan [7]. Bu holat badiiy so'z urush sharoitida bevosita ma'naviy qurol sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi.

O'zbek adiblari front hayoti bilan bevosita tanishishga ham intildi. Front safarlari ijodkorlarga jangchilar hayoti, urush sharoiti, harbiy intizom, jasorat va ruhiy kechinmalarni kuzatish imkonini berdi. Oybek olti oydan ortiq frontda bo'lib, jangchilar hayoti haqida she'rlar yozdi va keyingi asarlari uchun materiallar to'pladi [9]. Front safarlaridan qaytgan ijodkorlarning asarlarida hujjatlilik, kuzatuvchanlik va publisistik ohang kuchaydi.

Urush yillarida adabiy janrlar tizimi harbiy davr talablariga moslashdi. Chaqiriq she'rlari, jangovar qo'shiqlar, balladalar, ocherklar, qisqa hikoyalar, voqeband she'rlar, publisistik maqolalar, tarixiy dramalar va tarixiy-biografik romanlar faol yaratildi. Jangovar ocherk, murojaatnoma, ballada va she'riy xat kabi janrlar tezkorligi bilan ajralib turdi [11; 14].

Nasrda ixcham janrlar ustun bo'ldi. Abdulla Qahhorning "Xotinlar", "Asror bobo", "Ko'k konvert", "Qizil konvert", "Botirali", Oydinning "Qizlarjon", "Shirin keldi", "Yuragida o'ti bor", "Iroda", G'afur G'ulomning "Eri bilan bahs boylashgan xotin", Said Ahmadning "Mastonbibi", "Qo'shiq" kabi hikoyalarida front ortidagi hayot, ayollar mehnati, oilaviy ayriliq, qariyalar bardoshi va yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usi badiiy ifoda topdi [11; 13].

Ocherk janri ham urush voqeligini tezkor aks ettirishda muhim vosita bo'ldi. 1942-yilda "Mardlik", 1943-yilda "Sakkiz botir", 1944-yilda "Qahramonlar haqida hikoyalar" kabi to'plamlarning nashr qilinishi jangchilar va front orti mehnatkashlarining jasoratini hujjatli-badiiy shaklda ko'rsatishga xizmat qildi [11; 13]. Ocherklarda real shaxslar, aniq voqealar va jangovar holatlar asosida qahramonlik namunasi yaratildi.

Urush davri adabiyotida ballada janri ham faol rivojlandi. H. Olimjonning “Jangchi Tursun”, G'. G'ulomning “Suv va nur”, M. Shayxzodaning “Kapitan Gastello”, “Muhammad to'pchi”, Oybekning “Yigitning yigiti”, Uyg'unning “Qasos”, T. Fattohning “Yodgor” kabi balladalarini voqeabandlik, ixchamlik va dramatik ta'sirchanlik bilan ajralib turdi [11; 14]. Ballada janri real jangovar voqeani xalqona ohang, qahramonlik ruhi va badiiy umumlashtirish bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi.

Urush yillarida tarixiy mavzularga murojaat qilish kuchaydi. Bu jarayon tashqi xavf sharoitida xalq tarixidagi qahramonlik, ozodlik va Vatan himoyasi timsollaridan foydalanish ehtiyoji bilan bog'liq edi. H. Olimjonning “Muqanna”, M. Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi”, Oybekning “Mahmud Torobiy” dramalari tarixiy qahramonlar orqali zamonaviy jangovar ruhni kuchaytirishga qaratildi [11; 22].

Tarixiy drama xalqni ruhlantirishda samarali janrga aylandi. “Muqanna” dramasida arab istilosiga qarshi kurash lavhalari orqali bosqinchilarga qarshi xalq qarshiligi g'oyasi ifodalandi. Muqanna obrazi ozodlik uchun kurashuvchi xalq qahramoni, Guloyim obrazi esa ayol jasorati va sadoqat timsoli sifatida talqin qilindi [6; 11]. “Jaloliddin Manguberdi” dramasida tarixiy qahramonlik, vatanparvarlik va dushmanga qarshi matonat g'oyalari badiiy ifoda topdi. Oybekning “Navoiy” romani urush yillaridagi eng muhim adabiy hodisalardan biri bo'ldi. 1944-yilda nashr qilingan bu roman o'zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrining rivojlanishida alohida o'rin tutdi [11; 18]. Asarda Navoiy shaxsiyati orqali xalqparvarlik, adolat, ma'rifat, insonparvarlik va ijodkor mas'uliyati g'oyalari talqin qilindi. Urush sharoitida bunday tarixiy siymaga murojaat qilish milliy madaniy xotirani mustahkamlashga xizmat qildi. Biroq tarixiy mavzularga murojaat qilish keyingi yillarda ziddiyatli baholandi. Urush yillarida tarixiy qahramonlar xalqni ruhlantirish uchun zarur vosita sifatida qabul qilingan bo'lsa, urushdan keyingi mafkuraviy bosim kuchaygan davrda ayrim asarlar “feodal o'tmishni ideallashtirish”, “eski madaniyat oldida sajda qilish” kabi ayblovlar

bilan tanqid qilindi [15; 16]. Bu holat sovet adabiy siyosatida tarixiy merosga munosabat barqaror emasligini ko'rsatadi. Urush yillarida Toshkentga evakuatsiya qilingan yozuvchilar, olimlar va san'atkorlar respublika adabiy-madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Toshkentga A.N. Tolstoy, A. Axmatova, Y. Kolas, N. Pogodin, P. Skosirev va boshqa ko'plab ijodkorlar keldi [16; 17]. Ularning ishtiroki Toshkentni urush yillarida yirik madaniy markazlardan biriga aylantirdi.

Evakuatsiya qilingan adiblar O'zbekiston hayoti haqida asarlar yaratdi, o'zbek ijodkorlari bilan ijodiy aloqalarni kuchaytirdi va tarjima jarayonlarida qatnashdi. Y. Kolasning "O'zbekistonga", A. Tolstoyning "Fidokorlik", V. Lugovskiyning "O'zbekiston", I. Erenburgning "O'zbeklar" kabi asarlarida o'zbek xalqining front ortidagi mehnati, mehmondo'stligi va jangchilarga yordami tasvirlandi [17; 18].

Tarjima jarayoni urush yillarida alohida ahamiyat kasb etdi. Alisher Navoiy, Bedil, Ahmad Yassaviy kabi mumtoz adiblar, shuningdek G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda kabi zamonaviy ijodkorlarning asarlari rus tiliga tarjima qilindi. "Песни победы", "Поэты Узбекистана", "Ташкентский альманах", "В атаку", "Воины Узбекистана", "На зов Родины" kabi to'plamlar o'zbek adabiyotining ittifoq miqyosida targ'ib qilinishiga xizmat qildi [18; 19].

O'zbek dramaturgiyasi urush yillarida siyosiy-mafkuraviy safarbarlikning ta'sirchan vositalaridan biriga aylandi. Teatr xalq ommasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi maydon bo'lgani uchun pyesalardan jangovar ruhni kuchaytirish, xalq va armiyaning birdamligini ko'rsatish, front ortidagi fidoyilikni sahna orqali ifodalash talab qilindi. Urushning dastlabki ikki yarim oyida dramaturglar tomonidan 15 ta pyesa yozilgani bu janrning qanchalik tezkor safarbar qilinganini ko'rsatadi [22; 23].

"O'zbekiston qilichi", "Qasos", "Qurbon Umarov", "Davron ota" kabi pyesalarda dushmanga qarshi kurash, xalq qahramonligi, front ortidagi mehnat va Vatanga sadoqat g'oyalari ilgari surildi [22; 23]. "O'zbekiston qilichi" dramasida

qilich obrazi xalq dostonlaridagi bahodirlik an'analari va zamonaviy jangovar ruh bilan bog'landi. Bu asarda tarixiy xotira va urush davri safarbarlik g'oyasi uyg'unlashtirildi.

Dramaturgiyadagi yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham mavjud edi. Pyesalar ko'pincha shoshilinch yozildi, obrazlar ba'zan sxematik tarzda berildi, xarakterlarning ichki ruhiy dunyosi yetarlicha ochildi. Ma'naviy talab badiiy mezonlardan ustun qo'yilgan hollarda sahna asarlarining badiiy kuchi pasaydi. Bu holat dramatik kadrlar yetishmasligi, urush sharoitidagi tezkorlik va partiyaviy buyurtmaning kuchliligi bilan bog'liq edi.

Qoraqalpoq adabiyoti ham urush yillarida faol rivojlandi. N. Janoqov, J. Oymurzayev, D. Nozberganov, A. Dobilov, H. Seitov kabi ijodkorlarning she'rlarida Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va jangovar ruh ifodalandi. 1943-yilda Nukusda rus tilida "Победоносный народ" to'plamining nashr qilinishi Qoraqalpoq adabiyotining ham umumittifoq adabiy maydoniga olib chiqilganini ko'rsatadi [24; 25].

Urush yillarida xotin-qizlar obrazi ham kuchaydi. Erkaklarning katta qismi frontga safarbar qilingani sababli sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ta'lim va boshqa sohalarda ayollar zimmasiga katta mas'uliyat tushdi. G'. G'ulomning "Xotin", H. Olimjonning "Jangchi Tursun", A. Qahorning "Asror bobo", "Xotinlar", K. Yashinning "Oftobxon" kabi asarlarida ayol obrazi ona, yor, mehnatkash, ma'naviy tayanch va front ortidagi g'alaba ishtirokchisi sifatida talqin qilindi [26; 27].

Adabiy jarayon ichki ziddiyatlardan xoli bo'lmadi. Urushning dastlabki bosqichida yaratilgan ayrim asarlar badiiy jihatdan sayoz bo'ldi. Ko'plab matnlarda Informbyuro xabarlariga yaqin rasmiylik, shiorbozlik, jangovar voqealarni sxematik tasvirlash holatlari uchradi. Zamonaviy urush texnikasi bilan qurollangan jangchilar ayrim asarlarda folklor bahodirlariga o'xshatildi, qilich va qalqon obrazlari tank va avtomat bilan birga sun'iy uyg'unlashtirildi [24; 27]. Bu kamchiliklar urush davri shoshilinchligi, front voqealarini bevosita ko'rmagan holda asar yaratish, ma'naviy

buyurtmaning kuchliligi va badiiy tajribaning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Ayrim asarlarda qahramonlar murakkab ruhiy kechinmaga ega obraz sifatida emas, tayyor g'oyani ifodalovchi vosita sifatida berildi. Partiyaviy nazorat ham doimiy saqlanib turdi. 1942-yil dekabr oyida yozuvchilar faoliyati tanqid qilinishi respublika adabiy jarayonida siyosiy nazorat kuchli bo'lganini ko'rsatadi [28].

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek adabiyoti va dramaturgiyasi ikki yo'nalish kesishgan nuqtada rivojlandi. Bir tomondan, adabiyot sovet mafkurasi va urush davri targ'iboti talablariga bo'ysundirildi. Ikkinchi tomondan, aynan shu yillarda tarixiy mavzular, folklor motivlari, mumtoz meros, xalq qahramonligi va front ortidagi real hayot badiiy ifoda topdi. She'riyat, publisistika, ocherk, hikoya, ballada, tarixiy drama va roman janrlari orqali o'zbek adabiyoti xalq ruhiyatini ko'tarish, front bilan front orti o'rtasida ma'naviy ko'priklar yaratish vazifasini bajardi.

**Xulosa.** Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek adabiyoti va dramaturgiyasi siyosiy-mafkuraviy safarbarlik, jangovar ruh va vatanparvarlik g'oyalarini ifodalovchi muhim madaniy hodisa sifatida rivojlandi. Urush sharoitida adabiyotning ijtimoiy vazifasi keskin kuchaydi. Badiiy so'z xalqni ruhlantirish, frontdagi jangchilarni qo'llab-quvvatlash, front ortidagi mehnatkashlarni rag'batlantirish va g'alabaga ishonchni mustahkamlash vositasiga aylandi. Bu davrda she'riyat, she'riy xat, ocherk, hikoya, ballada, tarixiy drama, tarixiy-biografik roman va tarjima jarayonlari faol rivojlandi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Uyg'un, Komil Yashin, S. Abdulla kabi ijodkorlar urush davri adabiy jarayonida muhim o'rin tutdi. "Muqanna", "Jaloliddin Manguberdi", "O'zbekiston qilichi", "Navoiy" kabi asarlar tarixiy xotira va zamonaviy jangovar ruhni uyg'unlashtirishga xizmat qildi.

Urush yillaridagi o'zbek adabiyoti badiiy saviya jihatidan bir xil emas edi. Ayrim asarlarda shiorbozlik, sxematik obrazlar, tezkorlik sababli yuzaga kelgan badiiy nuqsonlar ko'zga tashlandi. Biroq bu davr adabiyoti xalq hayotining og'ir bosqichini

aks ettirgani, front va front orti o'rtasidagi ma'naviy aloqani kuchaytirgani, tarixiy xotira va vatanparvarlik g'oyalarini mustahkamlagani bilan muhim adabiy bosqich sifatida baholanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Правда Востока. – 1941. – 26 июня.
2. Сайимов Б. Улуғ Ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. – Т.: Фан, 1984. – Б. 5.
3. O'zMA, 2087-jamg'arma, 1-ro'xat, 63-ish, 181-varaq.
4. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1968. – № 7. – Б. 28.
5. Сайимов Б. Улуғ Ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. – Т.: Фан, 1984. – Б. 11, 139.
6. Азимов С. Ҳамид Олимжон. Ҳаёти ва ижоди ҳақида очерк. – Т.: 1955. – Б. 145.
7. Письма с фронта. – Т.: Издательство АН УзССР, 1949. – С. 33.
8. Ватаннинг чақирғига жавоб. – Т.: Ўздавнашр, 1943. – Б. 57.
9. Ойбек. Фронт бўйлаб. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1985. – Б. 23.
10. Литературная газета. – 1945. – 5 мая.
11. Мамажонов С. Улуғ Ватан уруши даврида ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1975. – Б. 13–14.
12. Шарқ юлдузи. – 1976. – № 4. – Б. 229–231.
13. Мамажонов С. Улуғ Ватан уруши даврида ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1975. – Б. 18.
14. Сайимов Б. Улуғ Ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. – Т.: Фан, 1984. – Б. 142.
15. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 493.

16. Эргашева Ю. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. – Т.: Фан, 1997. – С. 148.
17. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. 2-китоб. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 497.
18. История Узбекской Советской литературы. – М.: 1967. – С. 199.
19. Мамажонов С. Улуғ Ватан уруши даврида ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1975. – Б. 20–21.
20. Шарқ юлдузи. – 1976. – № 4. – Б. 231.
21. О‘зМА, 2356-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 84-ish, 6-varaq.
22. Ўзбек драматургияси тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – Б. 117–118.
23. Совет Ўзбекистони санъати. – 1979. – № 10. – Б. 4.
24. Нурмухаммедов М. Қорақалпоқ совет адабиёти тарихи. Қисқача очерк. – Т.: 1962. – Б. 95–99.
25. Нурмухаммедов М. Қорақалпоқ совет адабиёти тарихи. Қисқача очерк. – Т.: 1962. – Б. 95–100.
26. Ўзбек тили ва адабиёти. – 1975. – № 3. – Б. 7.
27. Нурмухаммедов М. Қорақалпоқ совет адабиёти тарихи. Қисқача очерк. – Т.: 1962. – Б. 103.
28. О‘зМА, 2356-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 84-ish, 6-varaq.